

ISLOM TA'LIMOTIDA INSON SALOMATLIGI VA MUSULMON MAMLAKATLARIDA SHIFOXONALAR EVOLYUTSIYASI

ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА В ВЕРОУЧЕНИИ ИСЛАМА И ЭВОЛЮЦИЯ БОЛЬНИЦ В МУСУЛЬМАНСКИХ СТРАНАХ

HUMAN HEALTH IN THE DOCTRINE OF ISLAM AND THE EVOLUTION OF HOSPITALS IN MUSLIM COUNTRIES

Lazizaxon A. ALIDJANOVA,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN,
Teacher at the Department UNESCO Chair on Religious
Studies and Comparative Study of World Religions. PhD
11, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan
lazizaxontiu@gmail.com

Lazzat K. RYSBEKOVA,
International Kazakh-Turkish University
named after H. A. Yasawi,
senior lecturer of the department of
Russian language and literature
Campus 7, Turkestan Kazakhstan
rysbekova1966@bk.ru

DOI: 10.47980/IIAU/2024/1/6

Annotatsiya. Jahonda sodir bo'layotgan global jarayonlar insonning ruhiy va jismoniy salomatligi masalasiga uyg'un holda yondashuvni talab etmoqda. Zamonaviy tibbiyot amaliyotida diniy ta'limotlarga asoslangan tibbiy-ruhiy muolajalar orqali mavjud muammolarga yechim topish mumkin. Jahon dinlaridan hisoblangan xristianlik va islom ta'limotida ko'p mingyillik tarix davomida insonning nafaqat ma'naviy, balki tibbiy salomatligi masalasini ham tartibga solish bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqilgan va ular hayotga tatbiq qilib kelinmoqda. 2020-yil dunyoda yuz bergan COVID-19 bilan bog'liq pandemiya sharoitida tibbiy muolaja bilan birgalikda, ruhiy-psixologik davolash jarayonlarining ommalashuvi diniy tibbiyotning ahamiyatini oshirdi. Shu jihatdan, ularning inson salomatligi masalalariga doir e'tiqodiy-ijtimoiy asoslarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Islom ta'limotiga ko'ra, har bir inson o'z umri davomida bir qancha sinovlardan, jumladan, hosildorlik, qurg'oqchilik, befarzandlik, boylik va boshqa yo'llar bilan sinovdan o'tadilar. Alloh tomonidan yuborilgan eng katta sinovlardan biri bu inson salomatligi va bemorligidir. Bu kabi sinovli kasalliklardan biri vabo bo'lib, bu kasallik insoniyat tarixida katta jamiyatlarga ulkan tahdidlar solgan. XXI asrga kelib, Yer yuzida katta xavf solgan COVID-19 ham shu kabi

vabo kasalligidandir. Shunga ko'ra 2020-yil 10-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4668-son Prezident qarorida "Salomatlik, osoyishtalik, insonlarga qaratilgan tibbiy-sanitar yordam ko'rsatishni ta'minlash, tibbiy-sanitariya xizmatlari sifatini oshirish, sog'liqni saqlash xizmatlari bilan yalpi qamrab olishni kengaytirish hamda iste'molchilarga o'z sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qilish borasida ongli tanlov uchun imkoniyatlar yaratishda xalq tabobatining salohiyatidan foydalanish" belgilab qo'yildi.

Islom ta'limotida inson hayoti davomida uchraydigan barcha muammolarning yechimi ochiq bayon etilgan. Shuningdek, kasallik Alloh tomonidan berilganidek, uning shifosi va davosini ham Alloh taoloning o'zi beradi. Bu haqda Qur'oni karimda shunday marhamat qilinadi: "Bemor bo'lganimda menga shifo beradigan ham Uning o'zi" (Shuaro surasi, 80-oyat). Shuningdek, kasallikdan saqlanish usullari ham Muhammad (s.a.v.) tomonidan Tibb an-Nabaviyda ochiq yoritib berilgan. Jobir ibn Abdullohdan rivoyat qilinadi: Rasululloh (s.a.v.)dan shunday deyaotganini eshitdim: "Idishlarning ustini yopib qo'yinglar, suv meshlarni og'zini mahkamlanglar, chunki yilning bir kechasida vabo tushadi. Uusti yopilmagan idishlar va og'zi ochiq meshlarga albatta tushadi" (Imom Muslim va imom Bayhaqi rivoyati).

Ushbu maqolada islom ta'limotida inson salomatligi va musulmon mamlakatlarida shifoxonalar tarixi va evolyutsiyasi jarayonlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: islom, tibbiyot, o'rta asrlar, salomatlik maskanlari, shifoxona, kasallik, davolash, Tibbun Nabaviy, bioetika, ruhiyat

Аннотация. Глобальные процессы, происходящие в мире, требуют гармоничного подхода к вопросу психического и физического здоровья человека. В современной медицинской практике решения существующих проблем можно найти посредством медицинских и духовных методов лечения, основанных на религиозном учении. В учениях христианства и ислама, считающихся мировыми религиями, на протяжении многих тысячелетий истории были разработаны и реализуются рекомендации по регулированию не только духовного, но и медицинского здоровья человека. В условиях глобальной пандемии в 2020 году, связанной с COVID-19, популяризация процессов душевно-психологического лечения наряду с медицинским лечением, повысила важность религиозной медицины. В связи с этим изучение их религиозно-социальных основ вопросов здоровья человека приобретает актуальное значение.

Согласно учению ислама, каждый человек в течение жизни разными способами подвергается испытаниям, как: плодородие, засуха, бедность, богатство и другие. Одним из величайших испытаний, посланных Богом, является здоровье и болезнь человека. Одной из таких болезней является чума, болезнь, которая представляла огромную угрозу для обществ на протяжении всей истории человечества. К XXI веку одной из таких болезней является Covid-19, ставший огромной угрозой для человечества. Соответственно, в Указе Президента № PQ-4668 от 10 апреля 2020 года «О

дополнительных мерах по развитию народной медицины в Республике Узбекистан» определены роль обеспечения здоровья, благополучия, гуманной медико-санитарной помощи и повышение качества санитарно-гигиенических услуг, расширение всеобщего охвата медицинскими услугами, и создание возможностей для потребителей сделать осознанный выбор в отношении своего здоровья в использовании потенциала народной медицины.

Решение всех проблем, с которыми сталкивается человек в жизни, ясно изложено в учении ислама. Также, если болезнь дарована Аллахом, так и исцеление даровано Им. Об этом в Коране излагается: «А когда я заболею, Он исцеляет меня, облегчая способы лечения» («Аш-Шуара» (Поэты), аят 80). Также способы избежания болезни ясно объяснены пророком Мухаммадом (мир ему и благословение Аллаха) в «Тибб ан-Набави». Передают от Джабира ибн Абдуллы: «Я слышал, как Пророк сказал: Накройте сосуды и бурдюк с водой, потому что болезнь (чума, холера, или иное эпидемическое заболевание) появляется в одной ночи года, и она воздействует на содержимое всякой непокрытой посуды и не завязанного бурдюка» (пересказ Имама Муслима и Имама Байхаки).

Ключевые слова: ислам, медицина, Средневековье, медицинские учреждения, больница, болезнь, лечение, Тиббун Набави, биоэтика, духовность.

Abstract. Global processes occurring in the world require a harmonious approach to the issue of human mental and physical health. In modern medical practice, solutions to existing problems can be found through medical and spiritual treatments based on religious teachings. In the teachings of Christianity and Islam, that are considered to be world religions, over the course of many millennia of history, recommendations have been developed and implemented to regulate not only spiritual, but also medical health of a person. In the context of the 2020 global pandemic related to COVID-19, along with medical treatment, the popularization of mental and psychological treatment processes has increased the importance of religious medicine. In this regard, the study of their religious and social foundations regarding human health issues acquires current importance.

According to the teachings of Islam, every person will undergo several tests during his life, including fertility, drought, childlessness, wealth and other tests. One of the greatest tests sent by Allah is human health and illness. One such disease is plague, a disease that has posed a huge threat to societies throughout human history. By the 21st century, one of these diseases is Covid-19, which has become a huge threat to humanity. Accordingly, Presidential Decree No. PQ-4668 dated April 10, 2020 "On additional measures for the development of traditional medicine in the Republic of Uzbekistan" defines the role of ensuring health, well-being, humane health care and improving the quality of sanitary and hygienic services, expanding universal health coverage services and creating opportunities for consumers to make informed choices about their health in using the potential of traditional medicine.

The solution to all the problems that a person faces in life is clearly stated in the teachings of Islam. Also, if the

disease is given by Allah, so is the healing given by Him. This is stated in the Koran: "And when I get sick, He heals me, facilitating the methods of treatment" ("Al-Shuara", verse 80). Also, ways to avoid illness are clearly explained by the Prophet Muhammad (peace and blessings of Allah be upon him) in Tibb an-Nabawi. Narrated from Jabir ibn Abdullah: "I heard the Prophet say: Cover the vessels and waterskin, because disease (plague, cholera, or other epidemic disease) appears in one night of the year, and it affects the contents of every uncovered vessel and untied wineskin" (retelling by Imam Muslim and Imam Bayhaki).

This article examines human health in Islamic teachings and the history and evolution of hospitals in Muslim countries.

Key words: Islam, medicine, Middle Ages, medical institutions, hospital, disease, treatment, Tibbun Nabavi, bioethics, spirituality.

KIRISH

Dunyoning ilmiy markazlarida din va tibbiyot munosabati sohalaridagi manbalarni chuqur o'rganish va ularning asl mohiyatini ochishga e'tibor qaratilmoqda. Bu turdagi tadqiqotlar din va tibbiyotning professional va fanlararo hamkorligi bilan aloqador tendensiyalar bo'yicha g'oyalarni ilgari surmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab G'arb va Sharqda tibbiyotning diniy asosi, uning vujudga kelishida diniy qarashlarning ahamiyati, muqaddas matnlardagi inson jismoniy salomatligi yuzasidan ko'rsatmalarning zamonaviy tibbiyotda isbotlanishi, bu boradagi ixtirolarning Bibliya kitoblari, Qur'on oyatlari va hadislarda aks etganligi to'g'risidagi ilmiy tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Shu nuqtai nazardan dinlarda tibbiy masalalarning e'tiqodiy-ijtimoiy asoslarining o'ziga xos jihatlarini ochib berish shu sohadagi tadqiqotlar ilmiy doirasining kengayishiga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 88-maqsadida: Pandemiyalarga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish kabi yo'nalish va maqsadlarda belgilangan: ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, aholi salomatligini saqlash va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish, sog'lom turmush tarzini mustahkamlash yo'nalishidagi vazifalarning bajarilishi natijasida qator ishlar amalga oshirilmoqda (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son). Jumladan, buyuk ulamolarning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish maqsadida Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida Xalq tabobati ilmiy-amaliy markazi, Xalq tabobati akademiyasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash, "Tibbun Nabaviy" (الطب النبوي) janridagi kitoblar ilmiy-izohli tarjimalarining nashr qilinishi nazarda tutilgan. Binobarin, tibbiyot bilan

birga dinshunoslik sohasiga ham yetarlicha ahamiyat qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi aholisi, xususan yoshlarning sog'lom turmush tarzini rivojlantirishda diniy qadriyatlardan keng foydalanish dinning ijtimoiy asoslarini tamoyil va qoidalarini ijtimoiy-falsafa nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilishni taqozo etadi.

MUHOKAMA

Maqolada tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-nazariy va falsafiy tahlil, tizimli, kompleks yondashuv va boshqa ilmiy bilish usullaridan foydalanildi.

Islom dini manbalaridagi tibbiy masalalar asoslarini o'rganish dinlarning yuzaga kelishi va jamiyatda tarqalish davridan boshlangan. XVIII asrga kelib, diniy va dunyoviy fanlarning ajratilishi natijasida tibbiyot diniy qarashlardan xoli tarzda mustaqil rivojlana boshladi. XX asr o'rtalariga kelib cherkov va davlat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning tibbiy-ijtimoiy, tashkiliy va axloqiy muammolarini har tomonlama tekshirishga bag'ishlangan ishlar amalga oshirila boshladi.

Islom dini va tibbiyot masalalarining uzviy bog'liq jihatlari, "Tibbun Nabaviy" janri bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ilmiy izlanishlarning har biri masalaning ma'lum jihatlari o'z ichiga olgan. Musulmon jamiyatidagi ilk shifoxonalar tarixi bo'yicha Muhammad Ansoriyning izlanishlari ahamiyatli bo'lsa, islomda bioetika masalalari bo'yicha V.Mamadaliyev va S.Musayevning "Islom va bioetika" asari shu soha bo'yicha qilingan muhim tadqiqot ishlaridan hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqotchilardan: F.Hamida, Z.Muxamedova, A.Akseki va I.Karimovlar ham o'rganganlar. Islom va tibbiyotning o'zaro aloqalari, ularning tarixi bo'yicha Ali ibn Rizvon, V.Bullo, M.Dols, S.Gonsalez, M.Marti, P.Porman, F.Rahman va M.Ullmanning ilmiy tadqiqot va asarlari keyingi ishlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Musulmon ulamolari Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Muslimning hadis to'plamlari, Abu Homid G'azzoliy, Badriddin Ibn Ahmad Ayniy, Ibn Hajar Asqaloni, Bahouddin Naqshbandiyning islom ta'limotida inson salomatligi va e'tiqodiy jihatlari komil inson g'oyasining zamonaviy shaxs tarbiyasidagi roli asoslangan. O'zbekistonda Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, M.Hasaniy, N.Musayeva (Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф, 2022; М.Хасаний, 2011:252) kabi olimlar o'z izlanishlarida dinning falsafiy va e'tiqodiy jihatlari o'rganganlar.

NATIJA

Tibb an-Nabaviyga asosan musulmon kishi doimo biror kasallik kelishidan oldin uning oldini olishga tadbir

qilishi lozim. Tibb an-Nabaviydagi hadislarining asosiy qismi kasallikni davolashdan ko'ra uning profilaktikasiga qaratilgan. Bu haqda Muhammad (s.a.v.)dan quyidagi hadis rivoyat qilinadi: Imom Bayhaqiy va Imom Hokim qilgan rivoyatda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday marhamat qildilar:

إِغْتَنِمْ خَمْسًا قَبْلَ خَمْسٍ: شَبَابَكَ قَبْلَ هَرَمِكَ وَصِحَّتَكَ قَبْلَ سَقَمِكَ وَغَنَّاكَ قَبْلَ فَقْرِكَ وَفَرَاغَكَ قَبْلَ شُغْلِكَ وَحَيَاتَكَ قَبْلَ مَوْتِكَ (رواه البيهقي والحاكم)

"Besh narsani besh narsadan avval g'animat bil: keksaligingdan avval yoshligingni, betobligingdan avval salomatligingni, faqirligingdan avval boyligingni, bir ishga mashg'ul bo'lib qolishingdan avval bo'sh vaqtingni va o'liming kelmasidan avval hayotlik vaqtingni" (Imom Bayhaqiy va Imom Hokim rivoyati).

Musulmon kishi har qanday holatda kasallikning kelishiga, o'zini va oilasini saqlash uchun barcha tadorikni ko'rishi shart. Shu bilan birga, inson tanasi bilan birga barcha ashyolarni pokiza saqlash, gigiyenaga amal qilish, tashqi ta'sirlardan himoya qilishi lozimligi uqtirilmoqda. Shuningdek, Muhammad (s.a.v.) bir joyga vabo tushsa, uning tarqaluvchi xususiyatga ega ekanligi hamda uning tarqalib ketmasligi uchun qanday tadbirlar qilinishi kerakligi haqida ham aniq ko'rsatma berganlar.

Bazelyuk Nadejda Nikolayevnaning tadqiqotida "Shuni tan olish kerakki, yaqinda valeologiyaning falsafiy va ijtimoiy jihatlari, sog'lom turmush tarzini shakllantirish u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadigan omillarga oid tadqiqotlarga qiziqish ortdi. Biroq, insonning individual sog'lig'ini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish, uning valeologik jihati, ahamiyatiga qaramay, turli sabablarga ko'ra tegishli e'tibor berilmagan. Shunday qilib, sog'lom turmush tarzi va individual (valeologik) salomatlikning ijtimoiy-falsafiy muammolarini, insonni va butun aholini sog'lom turmush tarzini shakllantirishga undash tamoyillarini tushuntirish muhimligi kelib chiqadi" (Базельюк Н.Н., 2008:4).

Ikrima ibn Xolid otasidan rivoyat qiladi: Rasululloh (s.a.v.) Tabuk g'azotida shunday dedilar: "Agar biror joyga to'un¹ tushsa-yu sizlar u joyda bo'lsalaringiz, u yerdan chiqmang. Agar vabo sizlar bo'lmagan boshqa biror joyda tarqalgan bo'lsa, u yerga yaqinlashmang!" (Imom Ahmad rivoyati). Ushbu hadisni imom Buxoriy, imom Muslim, imom Tahoviylar ham rivoyat qilganlar. Shuningdek, imom Termiziy "Sunan"ida ham ushbu hadis rivoyat qilinadi: Usoma ibn Zayddan rivoyat qilinadi: Nabiy (s.a.v.)dan to'un haqida so'radilar. U zot: "To'un – Bani Isroilning bir toifasiga yuborilgan kasallik yoki azobdir. Agar biror joyga to'un tarqalgan bo'lsa-yu sizlar u joyda bo'lsalaringiz, u yerdan chiqmangizlar. Agar vabo sizlar bo'lmagan boshqa biror joyda tarqalgan bo'lsa, u yerga yaqinlashmang!" (Imom Termiziy va imom Nasoiy rivoyati).

¹ Izoh: Vaboning bir turi

Yuqoridagi hadisga asosan, vaboning tarqalishini to'xtatishning eng maqbul chorasi zamonaviy karantin ekanligi ta'kidlanmoqda. Zamonaviy tibbiyotning barcha vakillari ham vabo tarqaganda eng birlamchi va ehtiyot chorasi sifatida aynan karantin tadbiri ekanligini ta'kidlaydi.

Jobir ibn Abdulloh al-Ansoriydan rivoyat qilinadi: Rasululloh (s.a.v.): "To'un tarqalgan vaqtda undan qochib boshqa joyga ketadigan kishining gunohi urush vaqtida dushmanga orqa o'girib qochgan kishining gunohi kabidir. O'sha vaqtda uyida sabr qilib o'tirgan kishining savobi urushda qochib ketmay sabr bilan dushmanga qarshi jang qilgan kishining savobi kabidir" (Imom Ahmad rivoyati).

Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) vabo haqida shunday deydilar: "Albatta, bu vabo – Alloh u bilan sizdan avvalgi qavmlarni halok qilgan azobdir. Yer yuzida undan bir ozi qolgan. Gohida keladi, gohida ketadi. Agar bir yerda vabo paydo bo'lsa, u yerdan chiqib ketmang. Agar bir yerda vabo borligini eshitsangiz, u yerga bormang" (Imom Ahmad rivoyatlari).

Madinaga hijrat qilingandan keyin bir muddat o'tgach, Abu Bakr (r.a.) va Bilol (r.a.)ni isitma bilan bezgak, vabo tutdi. Bu haqda Payg'ambarga xabar berilganda, U Zot (a.s.) vaboning ko'tarilishi va Juhfa degan joyga ketishini so'rab duo qildilar. Alloh taolo U Zotning duolarini qabul qildi (Imom Bayhaqi rivoyatlari).

Vabo va o'lat, umuman olganda epidemiyalar sababidan vafot etgan musulmonlar haqida Payg'ambar(s.a.v.) shunday deganlar: "Vabo – har bir musulmon uchun shahidlikdir" (Imom Buxoriy rivoyatlari).

Zamonaviy tibbiyot hamda psixologiya shuni ko'rsatmoqdaki, Qur'oni karim oyatlari insonning ham jismoniy, ham ruhiy kasalliklariga shifo bo'ladi. Bu xususida Qur'oni karimda quyidagicha keladi: "Biz Qur'onni mo'minlar uchun shifo va rahmat o'laroq nozil qilurmiz..." (Isro surasi, 82-oyat; Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, 2021). Shuningdek, Qur'onning boshqa oyatida: "...U, imyon keltirganlar uchun hidoyat va shifodir..." (Fussilat surasi, 44-oyat), deya marhamat qilingan.

Islom ta'limotida bemorlik uchun shifo topish, kasal kishiga g'amxo'rlik qilish nafaqat ma'qullangan amal, balki bu majburiy amal hisoblanadi. Jismoniy shifo topish avvalda qalbni poklashlik, ruhiyatni davolashlik bilan boshlanadi. Ruhiy salomatlik jismoniy sog'liq bilan bog'liq, degan nuqtai nazar bilan kasallarni davolash uchun avvalo Allohga murojaat qilish lozim. Qur'on va hadisda dalillar kasalliklar Allohning sinovi va ruhiy poklanish uchun yo'l ekanligiga dalolat qiladi (F.Rahman, 1987:37).

Islom ruhni davolash orqali tanani davolashga alohida urg'u beradi. Tibb an-Nabaviy insonning sog'lig'iga yo'naltirilgan hamda ma'naviy, psixologik, jismoniy va axloqiy elementlarni bir-biridan ajratmagan. Qur'on xristianlikdagi radikal aql-idrok dualizmi doktrinasiga qo'shilmaydi. "Qur'onda tez-tez uchraydigan "jon" yoki "o'zi" degan ma'noni anglatuvchi "nafs" olmoshi aslida "shaxs"ga qaratiladi (F.Rahman, 1987:21). Qur'oni karimning Moida surasida "nafs" so'zi o'zlikni anglash ma'nosida ishlatilgan: «Ey, imyon keltirganlar! O'zingizni biling. Agar hidoyatda bo'lsangiz, adashganlari sizga zarar qilmas. Hammangizning qaytib boradigan joyingiz Allohning huzurida. O'shanda sizga qilib yurgan ishlaringizning xabarini beradir (Isro surasi, 82-oyat; Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, 2021:105).

O'rta asr islom tibbiyot matnlarida tana va qalb masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Ibn Sino aql, ruh va tana bir-birlariga ta'sir qiladi, deb yozadi. Garchi u aqlni ustun deb bilgan bo'lsada, ong, ruh va tana bir-birining ta'sirisiz umumiy tana sog'lig'iga ega bo'lish yoki kasallikni alohida davolash mumkin emas, deydi. Ruhiy salomatlik haqida yozarkan u: "hissiyotlarni himoya qilishda ong va tana bir vaqtning o'zida saqlanib qoladi", (P.Morewedge, 1973:379) deydi.

Islomda davolashning birinchi usuli jismoniy bo'lsa, ikkinchisi ruhiy davolash bo'lib, ba'zi hollarda, jismoniy davolanishdan ko'ra ruhiy davolanish tavsiya etilgan. Birinchidan, bemorlar tanadagi kasallikdan shifo topishga intilib, yarani kuydirish azobi kabi, shuningdek, davolanish va parvarish qilish uchun katta miqdorda pul sarflab dori-darmonlarning achchiqligini his qiladilar. Boshqa tomondan, ruhni parvarish qilish va tozalash juda muhim (Badriddin Ayniy, 2021:231). Ikkinchidan, agar kasallikka jinlar va yomonliklar sabab bo'lgan bo'lsa, oddiy tibbiy muolajalar samara bermaydi. Chunki, ruhiy kasallik imon-e'tiqodning yo'qligi va qalbning qashshoqligi natijasida paydo bo'ladi. Bunday holda, ruhiy kasallikni aynan ruhiy davolash orqali muolaja qilinadi.

Musulmonlar inson jasadini sog'lomlashtirishda eng avvalo uning ruhiyati va nafsini poklash, shuningdek, axloqini sayqallashga alohida e'tibor qaratganlar. Payg'ambar (s.a.v.) sunnatlariga amal qilish, ularni hayotga tatbiq etish hamda qalb, nafs va ruhni poklash, tarbiyalash va xulqlantirish tasavvuf ulamolari tomonidan o'rganilgan. Bu ilm "Tibbul qulub", ya'ni qalblar shifosi deb atalib, uning o'ziga xos sharhi mavjud.

Tibb ilmi ikki qism: jism va qalb tabobatidan iborat. Jism tabobati odamning badani, a'zolarining salomat ekanligi jihatidan uning sog'lig'ini saqlash yoki kasallikdan tuzatish uchun o'rganiladi. Qalb tabobatida

esa, inson qalbining holati, uning tuzalishi, buzilishi yoki xasta bo'lishi jihatidan o'rganiladi.

Qalb inson jismidagi eng muhim a'zo. U sog'lom bo'lsa, boshqa a'zolar ham sog' bo'ladi. Agar u buzuq bo'lsa, boshqa a'zolar ham illatlanadi.

عَنِ الثَّعْمَانِ بْنِ بَشِيرٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ، عَنْ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ: «أَلَا وَإِنَّ فِي الْجَسَدِ مُضَغَةً، إِذَا صَلَحَتْ صَلَحَ الْجَسَدُ كُلُّهُ، وَإِذَا فَسَدَتْ فَسَدَ الْجَسَدُ كُلُّهُ، أَلَا وَهِيَ الْقَلْبُ». رَوَاهُ الْخَمْسَةُ.

No'mon ibn Bashir (r.a.) dan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam:

“Ogoh bo'lingkim, albatta, jasadda bir parcha go'sht bor. Qachon u solih bo'lsa, jasadning hammasi solih bo'ladi. Qachon u buzuq bo'lsa, jasadning hammasi buziladi. Ogoh bo'lingki, u qalbdir”, dedilar” (Beshovlari rivoyat qilishgan).

“Qalb” – lug'atda biror narsaning to'ntarilishi, ag'darilishini anglatadi. U bir maromda turmay, doimiy harakatda va ag'darilib turgani sababli “qalb” deb ataladi.

Islom tushunchalari bo'yicha qalb ikki: zohiriy va botiniy turda namoyon bo'ladi. Zohiriy qalb inson ko'krak qafasi ichida joylashgan konus shaklidagi go'sht parchasi. Botiniy qalb esa, nuroniy, latif, tafakkur qiluvchi, insoniylik xislatlarini ochib beruvchi narsadir.

Qur'oni karimning “Yunus” surasi 57-oyatida quyidagicha marhamat qilinadi: “Ey odamlar! Batahqiq, sizga Robbingizdan mav'iza, ko'kslardagi narsaga shifo, mo'minlarga hidoyat va rahmat keldi” (Yunus surasi 57-oyat; Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf). Ya'ni Qur'on qalbdagi ruhiy, ma'naviy dardlarning barchasiga shifo uchun nozil qilingan.

Payg'ambar Ibrohim (a.s.) qalbi salim, ya'ni salomatlardan bo'lganligi haqida Qur'oni karimning Soffat surasi 83-84 oyatlarida “Albatta, Ibrohim ham uning (Nuhning) guruhidandir. O'shanda u o'z Rabbiga sog'lom (salomat) qalb bilan kelgandi”, deb bayon qilingan. Mazkur oyatda Alloh o'zining bandalariga Ibrohim (a.s.)ni namuna qilib ko'rsatgan. Ushbu oyat bo'yicha Ibn Abbos (r.a.)dan rivoyat qilinadi: “Qalbi salimdan murod Allohdan o'zga iloh yo'q ekanligiga guvohlik berishdir”. Ya'ni, inson Allohga bo'lgan ishonchini toki qalbi bilan tasdiqlamaguncha u haqiqiy hisoblanmaydi. Chunki qalb masalasi nozik bo'lib, u faqat imon, e'tiqod, yaxshilik va hikmatlar makoni hisoblanadi. Bularga zid bo'lgan holatlarda qalbn salomat saqlab turilsa, buzuq illatlarni joylashishiga yo'q qo'yilmasa, unga qarshi kurashib turilsa, qalbn ruhiy tomondan ozuqalanirib turilsagina haqiqiy maqsad hosil bo'lib, uning egasi salomat qalb sohibiga aylanadi.

Alloh taolo Isro surasining 36-oyatida quyidagicha marhamat qilgan: “Albatta, quloq, ko'z va dil ana o'shalar mas'uldirlar” deb, bayon qilgan. Qiyomat kunida har bir inson ushbu uchta a'zosi orqali sodir qilgan gunohlaridan so'ralishga ishora qilinmoqda.

Mazkur oyatda “fuadun” so'zi dil, yani qalb ma'nosida kelib, inson gunohlari uchun qalb mas'ul qilib qo'yilgan. Bu borada Shaddod ibn Avs (r.a.)dan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bizga quyidagi duolarni aytib yurishimizni o'rgatar edilar: “Allohim! Albatta men Sendan ishda sobitlikni so'rayman va rushdda (to'g'ri yurishda) azmu qarorni so'rayman. Men Sendan ne'matinga shukur qilishni, ibodatingni go'zal qilishni so'rayman. Men Sendan sodiq til va solim (sog'lom) qalb so'rayman. Men Sendan o'zing bilgan narsalarning sharridan (yomonligi) panoh so'rayman. Men Sendan o'zing biladigan narsalarning xayridan (yaxshiligi) so'rayman. Men Sendan o'zing biladigan narsalardan istig'for so'rayman. Albatta, Sen o'zing g'ayblarni o'ta yaxshi bilguvchidirsan”, deganlar” (<https://hidoyat.uz/3920> (12.10.2022)). Mazkur duodagi sodiq til ishonchli, yaxshi so'zlarni so'zlaguvchi ma'nosida keladir. Agar qalb solim (sog'lom) bo'lsa, til sodiq bo'ladi. Agar insonning oyog'i xastalansa, yurish vazifasini bajarolmay qiyinlashadi. Qolgan a'zolar ham, shunday. Lekin insondagi (botiniy) qalb xastalansa, albatta jasadning barcha a'zolari ma'naviy jihatdan xasta hisoblanadi. Alloh taolo bu ma'naviy xastalikdan tuzalish yo'lini bandalariga Qur'oni karim orqali o'rgatadi.

Tabiblarning bosh “imomi”, yo'lboshchisi hisoblangan Rasululloh (s.a.v.) qalblarni davolashda asosiy namuna bo'lganlar. Musulmon ulamolar Qur'on oyatlari va Payg'ambar (s.a.v.) hadislaridagi qalb tabobati bo'yicha ko'plab usullarni aniqlaganlar. Ayniqsa, qalb mavzusi mutacavviflar uchun asosiy ob'yekt sifatida xizmat qiladi. Ushbu sohani keng qamrovli yortigan asarlar sifatida ulamolar quyidagi kitoblarni zikr qiladilar:

1. “Quutul qulub” nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Tolib Muhammad ibn Abul Hasan Ali ibn Abbos Makkiyning “Qutul qulub fi muomalatil mahbub va vasfi toriqil muriydi ila maqomit-tavhid” asari.

2. Abu Ismoil Abdulloh ibn Muhammad al-Haraviyning “Manozilus Soirin” asari.

3. Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad Tusi Abu Homid G'azzoliyning “Ihyou ulumid-din” asari (<https://www.youtube.com/watch?v=ZUoeLv0vAnI> (12.10.2022)).

Islom tibbiyotida ruhiy davolash, qalbn salomat saqlashlik bilan birga jismoniy sog'lomlashtirish bo'yicha bir qator aniq ko'rsatmalar berilgan. Jumladan, boshqa tibbiyot tizimlarida bo'lgani kabi, asal shifobaxsh ichimlik hisoblanadi. Imom Buxoriy o'zining “Kitob at-tibb” (tibbiyot kitobi)ning to'rtinchi bobini “ad-Davo'bi al-asal va qavlihi ta'ala fihi shifo li an-nas” deb nomlagan. Bu yerda Imom al-Buxoriy asal haqidagi uchta hadisni Qur'onning ko'p oyatlarida ta'kidlab o'tilgan qiymati bilan birga zikr qilgan. Alloh taolo Nahl surasining 68-69

oyatlarida Rabbingiz asalarilarga vahiy (buyruq) qildi: “Tog‘larga, daraxtlarga va (odamlar) barpo qiladigan narsalarga in quringiz. So‘ngra turli mevalardan yeb, Parvardigoringiz (siz uchun) qulay qilib qo‘ygan yo‘llardan yuringiz!” Ularning qorinlaridan odamlar uchun shifo bo‘lgan turli rangdagi sharbat (asal) chiqur. Albatta, bunda fikr yuritadigan qavm uchun alomat bordir”. Shu foydadan kelib chiqib, asalning shifobaxsh foydalari haqida Imom Buxoriy “Kitob at-tibb” (tibbiyot kitobi)da zikr qilgan eng mashhur hadislardan biri “Bab ad-Dava bi al-Asal va qavl Alloh ta‘ala fihi Shifo li an-Nas (Asal bilan davolash bobi va Alloh taoloning bayonoti: odamlar uchun shifo) bo‘lib, Payg‘ambar (s.a.v.) aytdilar: “Bir kishi Payg‘ambarning huzurlariga kelib: “Birodarimning bir oz qorin muammosi bor”, dedi. Rasululloh (s.a.v.) unga: “Asal ichsin”, deb javob berdilar. U kishi ikkinchi marta keldi va Payg‘ambar (s.a.v.) unga “Asal ichsin”, deb javob berdilar. U uchinchi marta keldi, Payg‘ambarimiz (s.a.v.): «Asal ichsin», dedilar. U yana qaytib kelib: “Men buni qildim”, dedi. Shunda Payg‘ambar (s.a.v.): “Alloh rost aytdi, lekin birodaringizning qorni yolg‘on gapirdi (sadaqa Alloh va kaziba batn axika). Unga ichishga asal bergin dedilar. Shunday qilib, u birodariga asal ichirdi va u shifo topdi”.

Yuqoridagi hadisdan kasallikni davolash sodda ekanligi, Payg‘ambar (s.a.v.) diareyani davolashning mashhur usulini bilganlari uchun bemorni nima tuzatishini bilar edilar. O‘sha paytda diareya bilan og‘rigan bemor qustirish yoki asal qabul qilish orqali, ich ketishni davolash uchun ich qo‘zg‘atuvchi dori berish orqali davolangan. Shu sababli hadisda Payg‘ambar (s.a.v.) huzurlariga kelib, birodari dizenteriya (istatlaqa batn) bilan og‘riganini aytgan bir kishi haqida gap boradi. Bu kasallikni davolash uchun Payg‘ambar (s.a.v.) asalni tavsiya qilganlar (Buxoriy, 2009). Bu yerda hadisdan kelib chiqadigan ikkita asosiy fikrni e‘tiborga olish lozim. Birinchidan, Rasululloh (s.a.v.) kasallik va bemorga mos bo‘lgan davoni bilganlar, chunki asalning bemorga foydasi borligiga amin edilar. Oshqozon va ichakda to‘plangan narsadan qolgan narsalarni chiqarib yuborish asalning tabiatidir. Ikkinchidan, Payg‘ambar (s.a.v.) bemorga asalni ko‘p marta iste‘mol qilishni buyurganlar, chunki u kasallikni davolaydi. Bemor kasallikdan azob chekishi uchun sabrini yo‘qotmasligi kerak, chunki ba‘zi kasalliklarni davolash uchun ko‘p yillar kerak bo‘ladi va tabiiy ravishda kamida oylar davom etishi mumkin (Badriddin Ayniy, 2018).

Payg‘ambar (s.a.v.)ning “Allohning so‘zi haq, birodaringizning qorni yolg‘ondir”, degan so‘zlari yuzasidan mufasssirlar o‘z fikr-mulohazalarini bildirganlar. Ulardan ba‘zilari, ya‘ni, Ibn Mas‘ud, Ibn Abbos, al-Hasan va al-Qadi Ayyodlar asal faqatgina shifo omilidir, deb hisoblaydilar. Chunki shifo beruvchi

faqat Allohdir (huva ash-shofi). Bu shuni anglatadiki, har qanday tibbiy muolajalarda shifokorlar faqat shifo topishga harakat qilishadi, shifo beruvchi Allohdir. Bu tafsir insonlar shifoni Alloh taolaga emas, balki o‘zlariga nisbat berib, takabburlik qilmasliklari kerakligini eslatadi. Bu fikrni “Allohning gapi to‘g‘ri, birodaringning qorni yolg‘on”, degan gap bilan bog‘lansa, asl maqsad namoyon bo‘ladi. Odamlarning kasallikni davolash uchun ko‘rayotgan choralari vaziyatni yengillashtirish uchun yetarli bo‘lmaydi. Allohning ilohiy aralashuvi va rahm-shafqati bilangina shifo topadi (Badriddin Ayniy, 2018).

Ibn Ahmad al-Ayniy “Umdah al-qori” asarida asal ichish qon tomirlarining to‘siqlarini ochishi, oshqozon va ichaklarni normal ishlatish orqali ortiqcha ovqatni parchalashi, ko‘krak qafasi va jigarni tozalashi mumkinligini ta‘kidlagan (Badriddin Ayniy, 2018). Bundan tashqari, al-Bag‘dodiy turli xil shakar va minerallarni o‘z ichiga olgan asal tomirlar va oshqozonni tozalash uchun foydalidir, deydi. Binobarin, bu qon aylanishini yaxshilash va tananing miya kabi a‘zolari ko‘proq havo bilan ta‘minlash uchun asal – quvvat manbaidir (Ibn Hajar Asqaloniy, 2014).

Qon oldirish (al-hijoma) bilan davolanish yunon tibbiyotidan malay an‘anaviy tibbiyotida ham mavjud bo‘lib, zararli va iflos qon sabab bo‘lgan kasalliklarni harom qonni chiqarib tashlash orqali davolash hisoblangan. Bunday bemor odamlar hijomadani, tananing qayeri bo‘lmasin, boshdan oyoqqa qadar kasal bo‘lib qolsa, davolanish uchun to‘g‘ri chora sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan.

Tibbiyotga oid hadislar “Sahihi Buxoriy”ning “Kitob at-tibb”ida ko‘plab qayd etilgan. Ular “Kitob al-tibb”ning o‘n birinchi bobidan o‘n beshinchi bobigacha yozilgan. Bu besh bobdan biri “Bab al-hijoma min al-da” (kasallik uchun davo sifatida)dir. Imom Buxoriy bu bobda Jobir ibn Abdullohning kasallik paytida al-Muqannani ziyorat qilganini rivoyat qilganini zikr qilgan. Jobir (r.a.) anhu dedilar: “Uni qoplamaguncha ketmayman, chunki men Rasulullohning: “Chiqishda shifo bor”, deganlarini eshitdim”. Ikkinchidan, Imom Buxoriy rivoyat qilgan “Allohning Rasuli Makkaga ketayotib, ehrom bog‘lagan holida, Lahy Jamol degan joyda boshining o‘rtasiga hijoma qildirgan edilar”. Uchinchidan, Imom Buxoriy rivoyat qiladilar: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning boshlaridan qon oldirdilar”. Shuningdek, Imom Buxoriy rivoyat qiladilar: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam hijoma va qon oldirishga teng keladigan davo turi yo‘q” (Buxoriy, 2009), deganlar.

Yuqoridagi hadislarini tafsir qilish jarayonida ikkita umumiy fikrni keltirish mumkin. Birinchidan, qon oldirish (hijoma) ning aniq vaqti yo‘q, chunki Payg‘ambar (s.a.v.) kechayu kunduz va ba‘zida ehrom

vaqtida ham qon oldirganlar. Ammo, agar qon oldirish noto'g'ri joy va vaqtda yoki lozim bo'lmagan o'rinda amalga oshirilsa, u odam tanasini zaiflashtiradi va toza qonni ham, zararli iflos qon bilan birga chiqarib tashlaydi. Shu sababli shifokorlar tomonidan xavfsizlik nuqtai nazaridan oshqozon-ichak kasalligi bilan og'riganlar, tuzalayotgan bemorlar, juda qari, jigari yoki oshqozoni zaif, yuzi yoki oyoqlari falajdan aziyat chekadiganlar va homilador yoki endigina tug'ilgan yoki hayz ko'rgan ayollar qon oldirishdan saqlanishlari lozimligi maslahat beriladi.

Rasululloh (s.a.v.) boshilaridan qon oldirganlari borasida Imom Buxoriy o'zining "at-Tibb" kitobining boblaridan birini "al-hijoma ala ar-ra's" (boshga hijoma qilish) deb nomlagan. Bosh og'rig'i boshdagi iflos qon tufayli yuzaga keladi, degan qarash qadimgi odamlar orasida keng tarqalgan va shuning uchun zararli qonni so'rish davolashning asosiy usuli hisoblangan. Shuningdek, bir kishi Rasululloh (s.a.v.)ga bosh og'rig'idan shikoyat qilganda, unga ham boshidan qon oldirishini buyurganlar.

Davolash usullarining rivojlanib borishi natijasida odamlar inson tanasining zararlangan qismlaridan qon so'rish vositasi sifatida zulukdan foydalanishi hijomaga o'xshashligini kuzatishgan. Grek-arab tibbiyotida zuluk terapiyasi muhim o'rin tutgan. Masalan, Ibn Sino va al-Bag'dodiy o'zlarining "al-Qonun fi at-tibb" va "al-Muxtorat fi at-tibb" asarida zuluk uchun alohida bo'lim yozganlar. Ibn Sinoning ta'kidlashicha, zulukni qo'llash tananing chuqur qismlaridan qonni chiqarishda hijomadan ko'ra foydaliroqdir. Teri kasalliklarida zuluk yordamida davolash maqsadga muvofiqdir. Al-Bag'dodiy uchun zulukdan foydalanish teri kasalliklari, nam va surunkali yaralar uchun eng yaxshi usul hisoblangan. Zuluk yog'li va go'shtli odamlarning vaznini kamaytirish uchun ham ishlatiladi. Ular qayta-qayta ishlatilishi mumkin, ammo o'zaro infeksiyalar almashinishi xavfi ortadi. Zuluk, ayniqsa, mikrojarrohlik operatsiyalaridan keyin to'qimalarni tozalash vositasi sifatida ham qo'llanilishi mumkin. Zulukdan foydalanish xavfi borligi sababli, al-Bag'dodiy va boshqa musulmon tabiblar zulukni tozalash zarurligini ta'kidlaganlar. Buning uchun qo'llashdan oldin zulukga yopishgan changni artib tashlash lozim. Zuluk qonni so'rib, pastga tushishga moyil bo'lganda, inson tanasining zararlangan qismiga tuz sepilishi kerak. Al-Bag'dodiyning zuluk haqida shunday deydi: "Ularni qo'llash kerak bo'lsa, avval ular bir kun davomida saqlanishi va keyin qo'llanilishi kerak. Agar zuluk yopishib qolmasa, yangi qon quyiladi yoki yaxshilab maydalab, maydalangan loydan sepiladi va shikastlangan joyida yara bo'lmasa, qizarib ketguncha ishqalanadi (Bag'dodiy, 2005).

"Sahihi Buxoriy"dagi "Kitob at-tibb"ning ahamiyati birinchi navbatda, Payg'ambar (s.a.v.)

davridagi musulmonlarning ahvoli, kasallikning oldini olish va davolash usullari haqida tushuncha beradi. At-tibb an-nabaviyning aksar qismi davolovchi tabobat (at-tibb al-ilojii) emas, balki profilaktika tabobati (at-tibb al-viqo'i) hisoblanadi. Kasallikning oldini olish usuli o'sha paytda mavjud bo'lgan ilmiy bilimlar darajasini hisobga olgan holda ilg'or hisoblangan. Kasallikni davolashda esa, Payg'ambar (s.a.v.)ning "Kitob at-tibb" asaridagi hadislar musulmon odam kasal bo'lsa, qanday davolanishi lozimligi haqida ma'lumot beradi. Alohida qayd etish lozimki, islomda kasallikni davolash asosan kasallikning sababiga asoslanganligini ko'rish mumkin. Bu esa dinlararo munosabatlarda birxillik xususiyatini (unifikasiya) kasb etib borayotgan jarayonga sabab bo'ladi.

Ushbu asoslarga misol qilib, "...Ularning o'zaro munosabatlari tarixida o'zaro manfaatlar to'g'risida xabardorlik darhol shakllanmagan, ammo ob'yektiv sabablarga ko'ra ("aloqa nuqtalari" ning ilmiy rivojlanishi yetarli emas, masalan, pedologiya). Aholining hayot sur'ati keskin oshib, bugungi kun global muammolariga aylandi. Ular orasida ekologik, valeologik, demografik muammolar paydo bo'ldi. Bu esa, o'qituvchining tayyorgarligiga tegishli o'zgartirishlar kiritish zarurligini keltirib chiqardi (Cулкарпаева Г.А.,), degan fikrlarni ham misol keltirishimiz mumkin.

Har qanday kasallik Alloh tomonidan berilganidek, uning shifosi va davosini ham Uning o'zi beradi, deb e'tiqod qilinadi. Bu haqda Qur'oni karimda shunday yozilgan: "Bemor bo'lganimda menga shifo beradigan ham Uning o'zi". Muhammad (s.a.v.) tomonidan tibbun Nabaviyda vabo va undan saqlanish yo'llari yoritib berilgan. Musulmon kishi e'tiqodiga asosan, doimo biror kasallik kelishidan oldin uning oldini olishga tadbir qilishi lozim.

Islom dini vujudga kelgandan so'ng musulmon mamlakatlarida mavjud davolash amaliyotlari tibbiyot va diniy marosimlar bilan uyg'un holda amalga oshirilgan. Shifoxonalar "jismoniy" sog'liqni saqlash muassasasining birinchi modeli (Michael W., 1987) sifatida xizmat qilgan. O'rta asrning o'rtalariga kelib tibbiyot, shuningdek, musulmon olamidagi kasalxonalar vaqf tomonidan to'liq ta'minlanganligi sababli avvalgilariga qaraganda tezroq rivojlanib borgan.

Kasalxonalarning tashkil etilishi dastlab dunyoviy va xayriya maqsadida bo'lib, epidemiyalarning kuchayishiga qarshi xizmat qilgan. Eron va Vizantiyada xalifalar va xalifaliklarning boy aholisi hisobidan kasalxonalar tashkil etilgan. Ular bepul va asosan kambag'allar uchun mo'ljallangan. Bemorlar kasallik turiga qarab taqsimlangan, ayollar erkaklardan ajratilgan. Kasalxonalar qoshida dorixonalar, kutubxonalar, oshxonalar, masjidlar faoliyat yuritgan.

Kasalxonalar 3 xil ko‘rinishda bo‘lgan:

1) xalifalar yoki mashhur musulmon arboblari tomonidan asos solingan, umumiy aholi uchun mo‘ljallangan kasalxonalar. Ular davlat tomonidan moliyalashtirilgan, shifokorlar va xizmatchilar shtati mavjud bo‘lgan;

2) shifokorlar va din arboblari tomonidan moliyalashtiriladigan kichik kasalxonalar;

3) harbiy qism bilan birga harakatlanuvchi harbiy tibbiyot muassasalari.

Musulmon dunyosidagi birinchi kasalxona xalifa al-Valid davrida 707-yilda qurilgan bo‘lib, moxov bilan kasallangan bemorlar uchun boshpana hisoblangan. Keyinchalik xalifaliklarda ruhiy kasallar, ko‘rlar va qariyalar uchun boshpana paydo bo‘ldi. Misrda birinchi yirik shifoxona 873-yilda barpo etilgan.

Bog‘dodda ilk kasalxona xalifa Horun al-Rashid va mashhur Baxtishlar sulolasidan bo‘lgan arman nasroniy shifokori Jabroil ibn Baxtish tashabbusi bilan tahminan 805-yilda tashkil etilgan. Ikki yarim asr o‘tgach (1160-yilda) ularning soni 60 dan oshdi.

IX asr boshlarida Qohirada zamonaviy tizimga amal qiladigan birinchi kasalxona tashkil etilib, butun musulmon Sharqida shifoxona qurilishi uchun namuna bo‘lib xizmat qildi (Lawrence I., 1995:136-137). XII asrga kelib esa, vaqf ta‘minoti ko‘payishi “bemoriston”larning islom dunyosining muhim nuqtasiga aylanishiga sababchi bo‘ldi.

Ilk islom kasalxonalari haqida tarixiy va zamonaviy olimlar ishlaridan tashkil topgan manbalar arab, ingliz va fors tillarida yozilgan. Arab tilidagi matnlarning aksariyati shifoxona tashkil etilgandan keyin yozilgan tarixiy qomuslarda shifoxona masalasiga to‘xtalib o‘tadi. Bu kabi arabiy matnlar va birlamchi manbalar asosiy voqea va hodisalarni hikoya qilishda xronologik yondashuvdan foydalanadi (Ibn Kasir, 1988). Jumladan, Ahmad Iso Bik (Isobek, 1981) qalamiga mansub “Tarix al-Bimoristonat fil islam” asari ham tarixiylik asosida hamda bir qator zamonaviy ilmiy maqolalardan foydalangan holda yozilgan. “Bemoriston” so‘zi forscha bo‘lib, “bemor” – kasal yoki ta’sir ko‘rsatilgan odam, “iston” – joy, makon (Isobek, 1981:4) ma’nosini anglatadi. Ayrim mualliflar buni «bemorlar joylashgan joy», ya’ni shifoxona deb tarjima qiladilar (J. K. Anand, 2007:69). Ushbu so‘zning ma’nosini Ibn Abi Usaybiya “bemorlar joyi” deb tarjima qilgan (Ibn Usaybia, 1981:71).

Vaqf o‘tishi bilan ushbu bimariston atamasi arab tilida hech qanday ma’noga ega bo‘lmaganligi sababli “maristan”ga qisqartirildi (Isobek, 1981:4). Lekin, “maristan” so‘zining kelib chiqishi forsiy iboraga mansub emas. “Maristan” so‘zining kelib chiqishi Suryoniy tildan olingan degan tahmin mavjud bo‘lib, “Mar” Iso Masihning onasi Maryam ismidan olingan,

“istan” esa forscha joy ma’nosini anglatadi. Shu sababli maristan “Maryamning joyi” degan ma’noni anglatgan (Muhammad Boqir Majlisii, 1897:89). Bu esa, islomdan avvalgi davrda kasalxonalarning diniy roli mavjud ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, bu arab manbalarida “maristan” so‘ziga shifoxona sifatida tez-tez murojaat qilish orqali qo‘llab-quvvatlangan. Biroq, “maristan” so‘zining asl kelib chiqishi ko‘proq forscha “bemoriston” so‘zining ayni nusxasidir.

Islomdan keyingi davrda arab tilida shifoxona so‘zi “Dar ush-Shifo” yoki ko‘proq zamonaviy holda “mustashfa” bo‘lgan. Bu kasalxonaga ijobiy qarash bo‘lib, tom adabiy ma’noda shifo beruvchi joy yoki uy ma’nosini anglatadi.

IX-XIII asrlarda musulmon olamida “bemoriston” – shifoxonalar faoliyati yanada jadallashgan. Ularning ta‘minoti vaqf tomonidan amalga oshirilgan. Shu o‘rinda qayd etish kerakki, X asr (milodiy 982-yil)da asos solingan Bag‘doddagi Al-Adudiy kasalxonasi, XII asrda qurilgan Damashqdagi An-Nuriy shifoxonasi (milodiy 1154-yilda asos solingan) va XIII asrda Kohiradagi Al-Mansuriy kasalxonalari (milodiy 1283-yilda asos solingan) o‘rta asrdagi eng katta bemoristonlardan bo‘lgan. Ular barqaror faoliyati bilan eng uzoq davom etgan kasalxonalardan sanalgan. Bu haqda ko‘plab tarixiy manbalarda ularning nomi eng ko‘p qayd etilganligini ko‘rish mumkin. Ayni paytda ushbu shifo maskanlari boshqa “bemoriston”lardan ajralib turadi (Howard R., 1995).

Islom tibbiyoti tarixchisi Maykl Dols kasalxonani “bemorlarga uzoq vaqt davomida parvarish qiladigan xayriya muassasasi” deb ta’riflaydi (Dols, 1987). Hozirgi kunda G‘arb davlatlaridagi zamonaviy kasalxonalar xususiy, shoshilinch va tez muddatli parvarishni ta’minlaydigan shaxsiy, eksklyuziv, foyda keltiradigan tashkilotlar hisoblanadi. Dols islom olamidagi kasalxonalarni esa ommaviy, xayriya asosida faoliyat olib boradigan va uzoq vaqt davomida xizmat qiladigan tashkilot sifatida ta’riflaydi.

XIII-XIV asr Misr tarixchisi Al-Maqriziy aniq sanasini keltirmasa-da, islom olamida tom ma’nodagi birinchi shifoxona Misrlik podshoh Manaqyush yoki uning o‘g‘li tomonidan qurilgan deb aytadi (Taqiyuddin Maqriziy, 1997).

Xristian xayriya kasalxonalari sonining o‘sishi Vizantiyadagi siyosiy ta’qiblar va siyosiy qochoqlar sonining o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu narsa diniy va siyosiy muhojirlar to‘lqinini Fors o‘lkasiga qochishiga sabab bo‘ldi (Dols, 1987:374-376). Bu muxojirlar Forsda Sharqiy Cherkov saxovatpeshaligiga asos solishda va islom shifoxonalariga tamal toshi bo‘lib xizmat qilgan ajdodi bo‘lmish Gundishapur shifoxonasiga asos solishdi (Khan, 1996:201).

Forsda tashkil etilgan yana bir bilim markazi, bu migrasiya natijasida zamonaviy Turkiya va Suriya o'rtasidagi chegara shaharchasi Nisibis shahri edi. Nisibis shahrida shifokorlar diniy ta'lim muassasalarida tibbiy tayyorgarlikni olishdi, ammo milodiy VI asr davomida tibbiy matnlarni o'qish amaliyoti cheklab qo'yildi (Isobek, 1981:8).

Islomdan avvalgi Arabiston yarimoroli sehr va dori vositalari elementlarini o'z ichiga olgan xalq tabobati markazi bo'lgan. Ushbu markaz asosan xalq tabobati bilan shug'ullangan (Dunlop:134-136). Arabistonda islomga qadar biror shifoxona bo'lganligiga hech qanday dalil yo'q. Keyinchalik, Gundishapur va Iskandariyani bitirib kelgan arabistonlik al-Haris ibn Kalda al-Ta'afiy, uning o'g'li an-Nasr Ibn al-Haris va Abd al-Malik Ibn Abjar al-Kinoniy islom yuksalishi davrida amaliyotchi shifokorlar sifatida mashhur bo'lganlar (Dunlop:134-136).

Hindiston, Vizantiya va Fors (Turner, 1997) kabi bir qator mintaqalarda shifoxonalar paydo bo'lishiga qaramay, islomdan avvalgi davrda kasalxonalar kamyob hodisa bo'lgan (Dols, 1987:387). Shuningdek, dori kasallikni yengishning asosiy vositasi hisoblanmagan.

Birinchi hijriy asrdagi islomning yoyilishi tibbiy merosning (Rafat Jan, 1996:267-268) keng doirada tarqalishiga imkon berdi va bu islom tarixida kasalxonalar rivojlanishi uchun asos sifatida xizmat qildi.

Milodiy 1160-yilda Andalusiyalik ravvin Benjamin Tudela Kordovadagi ellikdan ortiq kasalxonani va Bag'doddagi oltmishdan ortiq kasalxonani aniqlagan (François P., 2005:227). Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, islom olamida yirik tibbiyot muassasalari vazifasini bajaruvchi barqaror moliyalash manbasiga ega yirik kasalxonalar soni 34 tani tashkil etgan (Retief and Cilliers, 1978:227). Dols hatto, shifoxonalar faqat yirik shaharlarda mavjud bir nechta monumental tuzilmalar ekanligini ta'kidlaydi (Dols, 1987:387). Biroq, Ibn Jubayrning milodiy 1183-1185-yillardagi Suriya haqidagi ma'lumotlari shifoxonasiz deyarli shahar bo'lmaganligini ko'rsatadi (Pormann and Savage-Smith, 2007:101). Bu milodiy XII asrga kelib kasalxonalar har bir yirik musulmon shaharchasining muhim xususiyatiga aylanganini ko'rsatadi (Conrad, 1993). Shifoxonaning mavjudligi o'sha paytda qishloq va shahar dunyosini ajratib turuvchi vosita edi, chunki har bir shahar markazida kattaligidan qat'i nazar, shifoxona mavjud edi (Lev, 2005:72). Ular jamoat sog'liqni saqlash choralarning kengroq bir qismi sifatida mavjud bo'lgan (Pormann and Savage-Smith, 2007:101).

Shifokorlarning ta'lim jarayoniga shifoxona muassasalari muhim rol o'ynagan (Sigrid Hunke, 2001). Sinon Ibn Sobit X asr Bag'doddagi kasalxonalarga ta'sir

ko'rsatgan, uning davrida beshdan ortiq kasalxonalar uning maslahati yoki uning tibbiy boshqaruvi ostida qurilgan. U milodiy 1288-yilda vafot etgach, Misrga hijrat qilgan mashhur suriyalik tabib Ibn an-Nafis uning uyini va butun kitoblar to'plamini yangi tashkil etilgan al-Mansuriy shifoxonasiga hadya qilgan (Ibn Vardiy, 1889:991). Bu hisob musulmon tabiblarining boyligidan dalolat beradi, chunki islom qonunlarida musulmon merosining uchdan ikki qismini majburiy bo'lishni belgilab qo'yilgan. Yuqorida aytib o'tilganidek, vasiyat qiluvchi o'z mol-mulkinga ko'pi bilan uchdan bir qismini ixtiyoriy ravishda vasiyat qilishi mumkin, uning qarzlari va dafn xarajatlari bundan mustasno (David S. Powers, 1993:14). Demak, Ibn an-Nafis katta boylikka ega tabib bo'lgan. Boshqa shifokorlar ham islom davrida kasalxona asoslari yoki vaqflarida markaziy shaxslar bo'lib xizmat qilganlar.

Qohirada oftalmolog Shihob ad-Din 1171-yilda as-Siqotiyin bozorida shifoxona tashkil qilgan. Kasalxona uning o'limidan so'ng moliyaviy cheklanganligi sababli tez orada tugatilgan (Sabra, 1963). Badr ad-Din at-Tabib 1239-yilda qo'shni mulklarni xususiy sotib olib, ularni eng yuqori talablarga muvofiq qurish orqali allaqachon mavjud bo'lgan Damashqning an-Nuriy shifoxonasi bo'limlarini kengaytirish ustida ishladi (Shamsuddin Zahabiy, 1997:312). Bu usul yanada muvaffaqiyatli bo'ldi, chunki Badriddin va Ibn an-Nafisning hissalarini ularning o'zlaridan keyin ham ancha uzoq davom etdi. Garchi shifokorlar kasalxonalar uchun vaqf sababchilari bo'lib xizmat qilgan bo'lsalar ham, ularning daromadlari va badallari cheklangan edi. Shifokorlar kasalxonani ta'mirlash yoki kengaytirishni qo'llab-quvvatlashga muvaffaq bo'lishdi, lekin mustaqil ravishda shifoxona tashkil etish uchun moliyaviy va siyosiy imkoniyatlari cheklangan edi.

Abbosiylar davridagi shifoxonalarning dastlabki mudirlari tibbiyot sohasidagi tabiblar bo'lgan. Ibn Ya'qub ad-Damashqiy Bag'doddagi barcha kasalxonalarning bosh shifokori bo'lgan paytda Bag'doddagi kasalxonaga rahbarlik qilgan. Sinon Ibn Sobit Bag'dod, Makka, Madina va Tarsusdagi barcha shahar kasalxonalariga mas'ul bo'lgan. Bundan tashqari Bag'dodning oltinchi kasalxonasi – al-Muqtadiriyy shifoxonasini qurish uchun xalifalar shaxsiy mablag'lari hisobidan 200 dinor yordam bergan. Bu uslub hatto, Bag'doddagi keyingi avlodlarda ham davom etgan (Cyril Elgood, 1932:131-133).

Shifoxona boshqaruvi keyinchalik diniy ulamolar yoki qozilar tomonidan amalga oshirilgan. Masalan, Bag'dodiy musavvir Abu Bakr Ibn Abu Tohir (vafoti 1140-yil) Qazi al-Mariston (Shifoxona qozisi) unvoni bilan mashhur bo'lgan, chunki u bir qancha-yillar davomida al-Adudiy shifoxonasida ma'mur bo'lib

xizmat qilish bilan boshqa fanlar va ishlarni ham bajargan (Shamsuddin Zahabiy, 1997:329). Xuddi shunday holda, Amin ad-Din Yusuf ar-Rumi milodiy 1300-yillarning boshlarida bir vaqtning o'zida Damashqning muhtasib (bozor nazoratchisi) va an-Nuriyning shifoxonasining noziri bo'lib xizmat qilgan (Badrudin Ayniy, 1981:495).

X asrning birinchi shifoxonasi qurilishi al-Muqtadir davrida sodir bo'lgan. Vazir Ali ibn Iso Bag'dodning Harbiyya tumanida 914-yilda shifoxona qurirdi. Undan keyin asr oxiriga kelib yana beshta kasalxona qurildi. 918-yilda as-Sayyida shifoxonasi va al-Muqtadiri shifoxonasi, 923-yilda Ibn Furot shifoxonasi, 941-yilda Bajkam va 982-yilda al-Adudiy shifoxonalari qurildi.

Milodiy X asrda Adud ad-Davla Fanaxusru Fors va Iroq hukmdori bo'lgan. Adud ad-Davla siyosiy faoliyatini 14 yoshida Sherozda boshlagan va milodiy 957-yilda Isfahonni, 967-968-yillarda Umon va Kirmonni, 976-yilda Bag'dod va Iroqni egallagan (John J. Donohue, 2013). Al-Adudiy shifoxonasi milodiy 982-yilda 48 yoshida vafot etgan-yili qurilgan (Ch. Bürgel and R. Mottahedeh, 1988). Al-Adudiy shifoxonasi Bag'dodda 941-yilda Bajkam kasalxonasidan keyin qurib bitkazilgan birinchi shifoxona hisoblangan (Ibn Kasir, 1988).

Al-Adudiy shifoxonasi 982-yilda qurilganida unda jami 25 tabib, shu jumladan ko'z shifokorlari (kahhalun), jarrohlari (jarrohun) va suyak teruvchilar (mujabbirunlar) faoliyat olib borgan (Dunlop, yili ko'rsatilmagan). Milodiy 1067-yilda ta'mirlanganidan keyin ularning soni 28 taga ko'paydi (Pormann and Savage-Smith,). Benjamin Tudela 1171-yilda jami 60 tabib bo'lganligi haqida hikoya qiladi (A. A. Duri, 2013). Adud al-Davla shifoxonasida, shuningdek, hamshiralar, omborchilar, darvozabonlar, ma'muriy xodimlar va nazoratchilar ham ishlaganlar. Shifoxona to'liq jihozlangan, barcha zarur jihoz va dori-darmonlar bilan ta'minlagan (Ibn Javziy, 1889:982).

Adud al-Davla 983-yilda Bag'doddagi eng katta kasalxona barpo etdi. Bu u qurdirgan uchinchi shifoxona bo'lib, u olti-sakkiz-yil avval Sheroz va Isfahonda kasalxonalar qurgan edi (Ida Ahmadi, 2012:334). Sherozdagi Adudiy shifoxonasi universitet majmuasi tarkibida qurilgan (Elgood, 1932:159-172).

X asr Bag'dodda bemorlar yoki xodimlarning diniy mansubligi bo'yicha hech qanday cheklovlar bo'lmagan. X asr Bag'dodda tibbiy yordam ko'rsatishda yahudiylar va nasroniylar ustunlik qilgan. Al-Muqtadir musulmon bo'lmaganlarni barcha rasmiy lavozimlarda ishlashni taqiqlab qo'ygan, ammo istisno sifatida buni shifokorlarga nisbatan tatbiq etmagan (Pormann and Savage-Smith, 2007:102). Shuningdek, Ali ibn Abbos al-Majusi (Zardushti) Ahmad ad-Davlaning tabibi (Baron Carra De Vaux, 1993:741) bo'lgan,

Hibat ismli nasroniy tabibi esa kasalxonada ishlagan (Elgood, 1932:165). Bulardan tashqari qator musulmon bo'lmagan tabiblar Adudiy kasalxonasida ishlaganlar (Isobek, 1981). Ahmad ad-Davla nasroniy bo'lgan Nasr ibn Horunni ham o'ziga vazir etib tayinlagan (Bürgel and Mottahedeh, 1988).

X asr Bag'dodda ayollar kasalliklari haqida dalillar mavjud, biroq al-Adudiy shifoxonasi ayol bemorlarni joylashtirgan yoki yo'qligi to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Biroq, ar-Roziy bir qator amaliy tadqiqotlarda ayol tabiblar borligini ta'kidlab o'tgan (Ibid, 1970:105-107).

An-Nuriy shifoxonasida ham tabiblar va bemorlarning diniy mansubligi bo'yicha hech qanday cheklovlar bo'lmagan. Xususan, nasroniy tabibi Ibn al-Ibriy keyinchalik ruhoni bo'lgan va Yoqubiyar mitropoliti (Cyril Elgood, 1932:306) sifatida faoliyat olib borgan.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish kerakki, islom ta'limoti bo'yicha sahobalar kasallikni davolashda asosan Rasululloh (s.a.v.)ning ko'rsatmalariga amal qilishgan. Ya'ni, davolashda bir qultum asal, xijoma va zarurat bo'lganda kauterizasiyadan foydalanganlar. Davolash usullari sifatida, shuningdek, X-XI asrlarda musulmon tabiblari Abu Bakr ar-Roziy va Ibn Sino kasallikning oldini olish uchun toza havo, yorug'likdan to'g'ri foydalanishni ham keltirishadi. Islomda poklik va gigiena bo'yicha juda aniq qoidalar va qonunlar mavjud bo'lib, unda poklikka juda katta ahamiyat berilgan. Hammomlar har bir shaharda bo'lgan va jamiyatning barcha qatlamlari ushbu hammomlardan foydalanganlar. Kasallikning oldini olish imkonsiz bo'lganda birinchi davolash usuli parhez, ya'ni ro'za tutish hisoblangan. Tadqiqotda islomda poklik, gigiena, kasallikni oldini olishga oid qarashlar tahlil qilingan.

Islom mamlakatlarida kasalxonalarning tashkil etilishi dastlab dunyoviy va xayriya maqsadida bo'lib, epidemiyalarning kuchayishiga qarshi xizmat qilgan. Musulmon dunyosidagi birinchi kasalxona xalifa al-Valid davrida 707-yilda qurilgan bo'lib, moxov bilan kasallangan bemorlar uchun boshpana hisoblangan. Keyinchalik xalifalikda ruhiy kasallar, ko'rlar va qariyalar uchun boshpana sifatida faoliyat olib borgan. O'rta asr musulmon Sharqida kasalxonalar vaqf tomonidan ta'minlangan bo'lib, X asr Bag'dodda bemorlar yoki xodimlarning diniy mansubligi bo'yicha hech qanday cheklovlar bo'lmagan.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A. Duri. (2013). Ba Hdād, in *Encyclopaedia of Islam*. Second Edition. /ed. P. Bearman, et al. Brill Online.
2. Abu Bakr Al-Khassaf. (2008). *A Ninth Century Treatise on the Law of Trusts (Being a Translation of Al-Khassaf, Ahkam Al-Waquf)*. / trans. Gilbert Paul Verbit. – Bloomington : Xlibris Corporation.
3. Andrew C Miller. (2006). Jundi-Shapur, Bimaristans, and the Rise of Academic Medical Centres. // *Journal of the Royal Society of Medicine*.
4. Ann K. S. Lambton. (2013). Wakf in Persia, in *Encyclopaedia of Islam*, Second Edition. / ed. P. Bearman, et al.
5. Baron Carra De Vaux. (1993). Ṭibb, in *First Encyclopaedia of Islam: 1913-1936*, ed.
6. Byrne J.P. (2004). *The Black Death*. – Westport, CT : Greenwood Press.
7. Ch. Bürgel and R. Mottahedeh. (1988). A'od-Al-Dawla, in *Encyclopaedia Iranica*. – New York.
8. Conrad, *The Arab-Islamic Medical Tradition*. – PP. 136 – 137.
9. Conrad. (1993). *The Arab-Islamic Medical Tradition*.
10. Cyril Elgood, *A Medical History of Persia and the Eastern Caliphate: From the Earliest Times until the Year A.D. 1932*. – Cambridge : Cambridge University Press, 1951). – PP. 131 – 133.
11. Cyril Elgood. (1932). *A Medical History of Persia and the Eastern Caliphate: From the Earliest Times until the Year A.D.*
12. David S. Powers. (1993). *The Islamic Inheritance System: A Socio-Historical Approach*. // *Arab Law Quarterly* 8, no. 1.
13. Dunlop. (yili ko'rsatilmagan). *Bimaristan in Early Period and Muslim East*. – New York.
14. Dunlop. (yili ko'rsatilmagan). *Bīmāristān in Early Period and Muslim East*.
15. Emilie Savage-Smith (1994). // *Islamic Culture and the Medical Arts*. – URL : http://www.nlm.nih.gov/exhibition/islamic_medical/index.html.
16. F.Rahman. (1987). *Islam and Medicine: Health and Medicine in the Islamic Tradition: Change and Identity*. – New York.
17. François P. (2005). Retief and Louise Cilliers, “The Evolution of Hospitals from Antiquity to the Renaissance” *Acta Theologica Supplementum*.
18. Fussilat surasi, 44-oyat.
19. URL : <https://hidoyat.uz/3920> (12.10.2022)
20. URL : <https://www.youtube.com/watch?v=ZUoeLv0vAnI> (12.10.2022)
21. Huff. (1993). *The Rise of Early Modern Science: Islam, China, and the West*.
22. Isobek. (1981). *Tariyx al-bimariston fil islom*.
23. J. K. Anand. (2007). Etymology of the Word ‘Bimaristan’. // *Journal of the royal society of Medicine*.
24. John J. (2013). Donohue, A.ud Al-Dawla, in *Encyclopaedia of Islam*, THREE. / ed. Gudrun Krämer, et al. Brill Online.
25. Khan. (1996). *Islamic Medicine*, p. 6 ; Pioreschi, A *History of Medicine: Byzantine and Islamic Medicine*.
26. Lawrence I. (1995). Conrad, “The Arab-Islamic Medical Tradition,” in *The Western Medical Tradition: 800 Bc to Ad 1800*. – Cambridge : Cambridge University Press.
27. Lev. (2005). *Charity, Endowments, and Charitable Institutions in Medieval Islam*.
28. Lutz Richter-Bernburg. (1978). Bo.tišu.
29. Metzler I. (2006). *Disability in Medieval Europe: Thinking About Physical Impairment During the High Middle Ages*. – New York : Routledge.
30. Michael W. (1987). *The Origins of the Islamic Hospital: Myth and Reality*. // *Bulletin of the History of Medicine* 61, no. 3.
31. Michael W. Dols. (1987). *The Origins of the Islamic Hospital: Myth and Reality*.
32. P.Morewedge. (1973). *The Metaphysica of Avicenna (ibn Sina)*. – Columbia University Press, New York.
33. Pormann and Savage-Smith. (2007) *Medieval Islamic Medicine*.
34. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son
35. Rafat Jan. (1996). Rufaida Al-Asalmiya, the First Muslim Nurse, // *Image: the Journal of Nursing Scholarship* 28, no. 3.
36. Sabra. (1963). *Poverty and Charity in Medieval Islam: Mamluk Egypt*.
37. Schumm D. (2011). and Michael S. *Disability and Religious. – Diversity: Cross Cultural and Interreligious Perspectives*. – New York : Palgrave MacMillan.
38. Shapur Shahbazi. (2012). “Gondešapur: The City,” in *Encyclopaedia Iranica*, ed. Ehsan Yarshater. – New York : Columbia University Center for Iranian Studies.
39. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (2021). *Tafsiri hilol*. – Tashkent : Hilol-nashr.
40. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (2022). *Hadis va hayot*. – Tashkent : Hilol-Nashr, 2022. – J. 18.
41. Yunus surasi 57-oyat.
42. Yvonne Dold-Samplonius (2008). Sinan Ibn Thabit Ibn Qurra, Abi Sa'ed,” in *Complete Dictionary of Scientific Biography*. – Detroit : Charles Scribner's Sons.
43. Базелюк Н.Н. (2008). Социально-философские проблемы здорового образа жизни и индивидуального (валеологического) здоровья: Автореф. ... дисс. канд. филос. наук.
44. М.Хасаний. 2011. 1001 тиббий ҳикмат. – Тошкент : Fan va texnologiya.
45. Montford A. (2004). *Health, Sickness, Medicine and the Friars in the Thirteenth and Fourteenth Centuries*. – Burlington : Ashford.
46. Сулкарнаева Г.А. (1999). Интеграция учебных дисциплин с целью использования учителем валеологического блока для реализации гуманистической концепции образования: Автореф. ... дисс. канд. пед. наук.

REFERENCES

1. A. Duri. (2013). Ba Hdād, in Encyclopædia of Islam. Second Edition. /ed. P. Bearman, et al. Brill Onlayn.
2. Abu Bakr Al-Khassaf. (2008). A Ninth Century Treatise on the Law of Trusts (Being a Translation of Al-Khassaf, Ahkam Al-Waquf). / trans. Gilbert Paul Verbit. – Bloomington : Xlibris Corporation.
3. Andrew C Miller. (2006). Jundi-Shapur, Bimaristans, and the Rise of Academic Medical Centres. // Journal of the Royal Society of Medicine.
4. Ann K. S. Lambton. (2013). Wakf in Persia, in Encyclopædia of Islam, Second Edition. / ed. P. Bearman, et al.
5. Baron Carra De Vaux. (1993). Tibb, in First Encyclopædia of Islam: 1913-1936, ed.
6. Byrne J.P. (2004). The Black Death. – Westport, CT : Greenwood Press.
7. Ch. Bürgel and R. Mottahedeh. (1988). A'od-Al-Dawla, in Encyclopædia Iranica. – New York.
8. Conrad, The Arab-Islamic Medical Tradition. – PP. 136 – 137.
9. Conrad. (1993). The Arab-Islamic Medical Tradition.
10. Cyril Elgood, A Medical History of Persia and the Eastern Caliphate: From the Earliest Times until the Year A.D. 1932. – Cambridge : Cambridge University Press, 1951). – PP. 131 – 133.
11. Cyril Elgood. (1932). A Medical History of Persia and the Eastern Caliphate: From the Earliest Times until the Year A.D.
12. David S. Powers. (1993). The Islamic Inheritance System: A Socio-Historical Approach. // Arab Law Quarterly 8, no. 1.
13. Dunlop. (yili ko'rsatilmagan). Bimaristan in Early Period and Muslim East. – New York.
14. Dunlop. (yili ko'rsatilmagan). Bīmāristān in Early Period and Muslim East.
15. Emiliye Savage-Smith (1994). // Islamic Culture and the Medical Arts. – URL : http://www.nlm.nih.gov/exhibition/islamic_medical/index.html.
16. F.Rahman. (1987). Islam and Medicine: Health and Medicine in the Islamic Tradition: Change and Identity. – New York.
17. François P. (2005). Retiyef and Louise Cilliyers, “The Evolution of Hospitals from Antiquity to the Renaissance “ Acta Theologica Supplementum.
18. Fussilat surasi, 44-oyat.
19. URL : <https://hidoyat.uz/3920> (12.10.2022)
20. URL : <https://www.youtube.com/watch?v=ZUoeLv0vAnI> (12.10.2022)
21. Huff. (1993). The Rise of Early Modern Science: Islam, China, and the West.
22. Isobek. (1981). Tariyx al-bimariston fil islom.
23. J. K. Anand. (2007). Etymology of the Word ‘Bimaristan’. // Journal of the royal society of Medicine.
24. John J. (2013). Donohue, A. ud Al-Dawla, in Encyclopædia of Islam, THREE. / ed. Gudrun Krämer, et al. Brill Onlayn.
25. Khan. (1996). Islamic Medicine, p. 6 ; Pioreschi, A History of Medicine: Byzantine and Islamic Medicine.
26. Lawrence I. (1995). Conrad, “The Arab-Islamic Medical Tradition,” in The Western Medical Tradition: 800 Bc to Ad 1800. – Cambridge : Cambridge University Press.
27. Lev. (2005). Charity, Endowments, and Charitable Institutions in Medieval Islam.
28. Lutz Richter-Bernburg. (1978). Bo.tišu.
29. Metzler I. (2006). Disability in Medieval Europe: Thinking About Physical Impairment During the High Middle Ages. – New York : Routledge.
30. Michayel W. (1987). The Origins of the Islamic Hospital: Myth and Reality. // Bulletin of the History of Medicine 61, no. 3.
31. Michayel W. Dols. (1987). The Origins of the Islamic Hospital: Myth and Reality.
32. P.Morewedge. (1973). The Metaphysica of Avicenna (ibn Sina). – Columbia University Press, New York.
33. Pormann and Savage-Smith. (2007) Medieval Islamic Medicine.
34. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son
35. Rafat Jan. (1996). Rifaida Al-Asalmiya, the First Muslim Nurse, // Image: the Journal of Nursing Scholarship 28, no. 3.
36. Sabra. (1963). Poverty and Charity in Medieval Islam: Mamluk Egypt.
37. Schumm D. (2011). and Michayel S. Disability and Religious. – Diversity: Cross Cultural and Interreligious Perspectives. – New York : Palgrave MacMillan.
38. Shapur Shahbazi. (2012). “Gondešapur: The City,” in Encyclopædia Iranica, ed. Ehsan Yarshater. – New York : Columbia University Center for Iranian Studies.
39. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (2021). Tafsiri hilol. – Tashkent : Hilol-nashr.
40. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (2022). Hadis va hayot. – Tashkent : Hilol-Nashr, 2022. – J. 18.
41. Yunus surasi 57-oyat.
42. Yvonne Dold-Samplonius (2008). Sinan Ibn Thabit Ibn Qurra, Abi Sa'ed,” in Complete Dictionary of Scientific Biography. – Detroit : Charles Scribner's Sons.
43. Bazelyuk N.N. (2008). Sotsialno-filosofskiy problemi zdorovogo obraza jizni i individualnogo (valeyologicheskogo) zdorovya: Avtoref. ... diss. kand. filos. nauk.
44. M.Hasaniy. 2011. 1001 tibbiy hikmat. – Tashkent : Fan va texnologiya.
45. Montford A. (2004). Health, Sickness, Medicine and the Friars in the Thirteenth and Fourteenth Centuries. – Burlington : Ashford.
46. Sulkarnayeva G.A. (1999). Integratsiya uchebnix dissiplin s selyu ispolzovaniya uchitelem valeyologicheskogo bloka dlya realizatsii gumanisticheskoy konsepsii obrazovaniya: Avtoref. ... diss. kand. ped. nauk.